



VOLUME 4, APRIL 2026

ISSN: 3060-4958



"A special kind of beauty exists which
is born in language, of language,
and for language."

– GASTON BACHELARD



**UZBEKISTAN STATE WORLD
LANGUAGES UNIVERSITY**

MORE INFO:

www.lingvospektr.uz



t.me/thelinguaspectrum



Terminology and classification of artistic descriptive means in the Uzbek language

Ibragimova Extiyotxon Ismailovna

ehdiyot1973@yandex.ru

Candidate of Philological Sciences, Professor
Fergana State University, Fergana, Uzbekistan

Annotation

This article examines theoretical and practical problems related to the terminology used for artistic descriptive means in Uzbek literary language and linguistic stylistics. It compares the concepts "descriptive-expressive means," "means of artistic depiction and expression," and "special descriptive means of language" found in textbooks and methodological studies. The analysis identifies logical duplication and stylistic redundancy in several established terms. To ensure terminological consistency, the article substantiates the unified term "artistic descriptive means of language." It also proposes a revised classification based on the linguopoetic, formal, and semantic properties of language units. The proposed system includes three groups: form-related devices or figures of speech; meaning-transfer devices or tropes; and complex synthetic phenomena based simultaneously on formal and semantic change, including antithesis and chiasmus. The findings contribute to the standardization of stylistic terminology and may support the teaching of stylistics, linguopoetics, and the systematic analysis of literary texts in Uzbek higher education.

Keywords

stylistics, artistic descriptive means, terminology, tropes, figures of speech, antithesis, classification

O'zbek tilida badiiy tasvir vositalari terminologiyasi va ularning tasnifi

Ibragimova Extiyotxon Ismailovna

ehdiyot1973@yandex.ru

Filologiya fanlari nomzodi, professor
Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona, O'zbekiston

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek adabiy tili va lingvistik stilistikada badiiy tasvir vositalarini terminologik nomlash bilan bog'liq nazariy hamda amaliy muammolar tahlil qilinadi. Uslubshunoslik va adabiyotshunoslikka oid darsliklar hamda ilmiy-metodik manbalarda uchraydigan "ifoda-tasviriy vositalar", "badiiy tasvir va ifoda vositalari" va "tilning maxsus tasviriy vositalari" tushunchalari o'zaro qiyoslanadi. Tahlil ayrim shakllangan atamalarda mantiqiy takror va uslubiy ortiqchalik mavjudligini ko'rsatadi. Sohada terminologik izchillikni ta'minlash maqsadida "tilning badiiy tasvir vositalari" yagona termini ilmiy jihatdan asoslanadi. Shuningdek, til birliklarining lingvopoetik, shakliy va semantik xususiyatlariga tayangan yangilangan tasnif taklif etiladi. Mazkur tizim shakl bilan bog'liq vositalar yoki figuralar, ma'no ko'chishiga asoslangan vositalar yoki troplar hamda shakl va mazmun o'zgarishini birlashtiruvchi murakkab sintetik hodisalarni, jumladan, antiteza va xiazmni qamrab oladi. Natijalar stilistik terminologiyani standartlashtirishga, stilistika va lingvopoetikani o'qitishga hamda badiiy matnlarni tizimli tahlil qilishga xizmat qiladi. Taklif etilgan yondashuv oliy ta'lim jarayonida tushunchalarni bir xil izohlash, o'quv materiallarini muvofiqlashtirish va amaliy lingvistik tahlil mezonlarini yanada aniqlashtirish imkonini beradi.

Kalit so'zlar *stilistika, badiiy tasvir vositalari, terminologiya, troplar, figuralar, antiteza, tasnif*

Терминология и классификация художественно- изобразительных средств в узбекском языке

Ибрагимова Эхтиётхон Исмаиловна

ehdiyot1973@yandex.ru

*Кандидат филологических наук, профессор
Ферганский государственный университет,
Фергана, Узбекистан*

Аннотация *В статье анализируются теоретические и практические проблемы терминологического обозначения художественно-изобразительных средств в узбекском литературном языке и лингвистической стилистике. Сопоставляются понятия «изобразительно-выразительные средства», «средства художественного изображения и выражения» и «специальные изобразительные средства языка», представленные в учебниках и научно-методических источниках по стилистике и литературоведению. Анализ выявляет логические повторы и стилистическую избыточность в ряде устоявшихся терминов. Для обеспечения терминологической последовательности научно обосновывается единое сочетание «художественно-изобразительные средства языка». Предлагается также обновлённая классификация, основанная на лингвопоэтических, формальных и семантических свойствах языковых единиц. Система включает средства, связанные с формой, или фигуры речи; средства переноса значения, или тропы; а также сложные синтетические явления, объединяющие изменения формы и содержания, включая антитезу и хиазм. Полученные результаты способствуют стандартизации стилистической терминологии, преподаванию стилистики и лингвопоэтики, а также системному анализу художественных текстов в высшей школе. Предлагаемый подход позволяет унифицировать толкование понятий, согласовать учебные материалы и уточнить критерии практического лингвистического анализа в образовательной и исследовательской работе по изучению современного узбекского литературного языка.*

Ключевые слова *стилистика, художественно-изобразительные средства, терминология, тропы, фигуры речи, антитеза, классификация*

KIRISH

O'zbek adabiy tilining uslubiy imkoniyatlari va estetik mukammalligi o'z-o'zidan yoki birdaniga shakllanib qolgani yo'q. Sir emaski, u, eng avvalo, xalqimizning asrlar davomida badiiy tafakkur va so'z san'ati elagidan o'tib sayqallangan boy adabiy tili hamda jonli so'zlashuv tilining bepayon

manbalari zaminida vujudga kelgan. Milliy tilimizning tarixiy taraqqiyot bosqichlarida badiiy adabiyot va publisistika yetakchi o'rin tutib, tilning stilistik vositalarini boyitish, fikrni ta'sirchan, obrazli va serjilo ifodalash mexanizmlarini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qildi.

Mustaqillik yillarida va hozirgi davr o'zbek tilshunosligida uslubshunoslik, lingvopoetika hamda badiiy matn tahliliga bag'ishlangan qator salmoqli tadqiqotlar yaratildi, nazariy va amaliy xulosalar shakllandi. Shunga qaramay, sohada haligacha o'z yechimini kutayotgan, ilmiy jihatdan qayta qarash va tizimlashtirishni taqozo etayotgan masalalar ham talaygina. Xususan, adabiyotshunoslik va tilshunoslikning tutash nuqtasida joylashgan badiiy tasvir vositalarining terminologik nomlanishi, ularning chegaralarini aniqlash va ilmiy asoslangan bir xil (standartlashtirilgan) tasnifini ishlab chiqish bugungi kun uslubshunoslik fani oldida turgan eng dolzarb nazariy muammolardan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Uslubshunoslik lingvistikaning boshqa sohalaridan farqli ravishda tilning ifodalilik imkoniyatlarini o'rganadi. Akademik G'. Abdurahmonov ta'biri bilan aytganda, stilistika tilda mavjud bo'lgan barcha vositalar – fonetik, leksik-grammatik vositalardan nutqda qanday foydalanish zarurligi, ulardan qaysi birini qo'llash muvofiq ekanligini o'rgatuvchi ilmdir (Abdurahmonov, 1973, p. 52). Uslubshunoslik eng avvalo, til va nutq birliklarining emotsional-ekspressiv funksiyalariga taalluqli ta'limotdir. Til va nutqning farqlanishi stilistikaning mustaqil fan sifatida shakllanishiga olib keladi. Stilistika uslub bilan bevosita aloqador bo'lib, unda nutq birliklarini maqsadli va o'rinli qo'llash xususiyatlari, ularni tanlash imkoniyatlari haqida fikr yuritiladi. O'zbek tilshunosligida badiiy tasvir vositalari umumiy tarzda tadqiq etilgan bo'lsa ham, lekin keng ko'lamda, badiiy tasvir vositalarining tasnifi, ularning ichki mazmuniy mundarijasi nazariy jihatdan maxsus o'rganilmagan.

Shu bilan birga, badiiy tasvir vositalarining nomlanishida va tasnif etilishida har xilliklar mavjud, ularni bir tartibga solish, o'zbek tilida badiiy tasvir vositalarining yagona tasnifini berish hamon o'z yechimini kutayotganligi sir emas.

O'zbek adabiy tilining rivojlanishida badiiy adabiyotning o'rni beqiyosdir. Muallif voqelikni badiiy-estetik jihatdan ta'sirchan, yorqin ifodalash uchun tilning fonetik, leksik va grammatik imkoniyatlaridan o'ziga xos foydalanib, o'zi bayon qilayotgan fikrni o'quvchiga ixcham, aniq, ta'sirchan qilib yetkazish uchun uzundan-uzoq ta'rif va tavsiflar o'rniga o'xshatish, sifatlash, jonlantirish, kichraytirish, kinoya, majoz va boshqa vositalardan foydalangan holda aniq, lo'nda qilib tushuntirishga harakat qiladi. "Bunday vositalarni tilshunoslik va adabiyotshunoslikda ifoda-tasviriy vositalar deb ataladi" (Qo'ng'urov et al., 1992, p. 97). Bizningcha, mazkur terminologik birikma tarkibida "ifoda" so'zi ortiqcha.

Aynan shu atama, ya'ni "ifoda-tasviriy vositalar"ga alohida e'tiboringizni qaratmoqchimiz, chunki adabiyotlarda bu atamaning turli xil nom ostida qo'llanilayotganligini ko'rish mumkin. Jumladan, I. Sulton "badiiy asar tilini jonli, obrazli qiladigan vositalar badiiy til vositalari" (Sulton, 1986, p. 125), – deb ataydi va uning tarkibiga mubolag'a, frazeologiya, jonlantirish, sifatlash, o'xshatish, metafora, metonimiya, intonatsion vositalar (ulardan eng ko'p ishlatiladiganlaridan biri inversiya, bilib turib bilmaslikka olish) kabi vositalarni kiritadi hamda tahlil qilib o'rganadi.

Adabiyotshunos olim Dilmurod Quronov badiiy asarda tasvirlanayotgan narsani jonli tasvirlash, his-tuyg'u va kechinmalarni yorqin ifodalashga xizmat qiluvchi vositalarni birlashtirib "badiiy tasvir va ifoda vositalari" deb ataydi. Yana shuni unutmazlik kerakki, olim bu vositalarning bunisi tasvir, bunisi ifoda vositasi deyishni ma'qul ko'rmaydi, chunki badiiy adabiyot so'z vositasida tasvirlaydi va shu tasvir orqali ifodalaydi (Quronov, 2002, p. 116), – deb biladi. Bu o'rinda ham "badiiy tasvir va ifoda vositalari" tarkibidagi "va ifoda" qo'shilmasi mantiqan va uslub jihatdan ortiqcha.

Tasviriy vositalar Erkin Xudoyberdiyevning nazaridan ham chetda qolmagan. U tasviriy vositalarni ikkiga:

"Tasviriy-ifodaviy vositalar" hamda "Tilning maxsus tasviriy vositalari" (Xudoyberdiyev, 2003, p. 123) kabi turlarga ajratadi.

"Tasviriy-ifodaviy vositalar" nomi ostida tilning leksik imkoniyatlari nihoyatda ko'p ekanligini, ular orasida sinonimlar va antonimlar, arxaizm va neologizmlar, dialektizmlar, jargonizm va professionalizmlar hamda varvarizmlarning o'rni haqida to'xtalib, alohida o'rganadi.

"Tilning maxsus tasviriy vositalari" ga esa epitet (sifatlash), o'xshatish, majoz, metafora, jonlantirish, allegoriya, metonimiya, sinekdoxa, giperbola va litota, ironiya va perifraz kabi vositalarni kiritib tahlil qiladi. Shu bilan birga tahlil so'ngida badiiy til nazariyasi haqidagi xulosalar, nazm va nasr tilidagi o'ziga xos tomonlar haqida ham to'xtalib o'tiladi.

Ma'lumki, badiiy tasvir vositalari yuqoridagi qator ma'lumotlarda troplar va figuralar deb ikkiga bo'lingan holda o'rganilgan. Yuqorida keltirilgan misollarga qo'shimcha sifatida quyidagilarni ham keltirmoqchimiz. Jumladan, A. Shomaqsudov (Shomaqsudov et al., 1983, p. 248), R. Qo'ng'urov (Qo'ng'urov et al., 1992; Qo'ng'urov, 1977) tomonidan yaratilgan darsliklar va qo'llanmalarda badiiy-tasviriy vositalarga yondashilib, mavzu aniq yoritib berilgan, ya'ni troplar va figuralarning chegarasi imkon darajasida aniqlanib, izohlangan.

"So'z ma'nosi ko'chishining metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi bir qator turlari, - deydi M. Yo'ldoshev, - filologiya ilmida ko'chimlar yoki troplar nomi bilan umumlashtiriladi" (Yo'ldoshev, 2002, p. 27).

Olima M. Qosimova yuqoridagi ta'riflar bir-birini mantiqan to'ldirishi, shuning uchun ularni umumlashtirib, troplarga "Adabiy asarning badiiy qimmatini, ifodaliligini, ekspressivligini kuchaytirish uchun xizmat qiladigan metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi ma'no ko'chish usullari ko'chimlar yoki troplar nomi bilan umumlashtiriladi" (Qosimova, 2007, p. 23), - deb ta'rif beradi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, mavjud ilmiy-metodik adabiyotlarda, darslik va qo'llanmalarda badiiy tasvir vositalari turlicha atamalar hamda bir-biridan farqli yondashuvlar orqali ifodalanib kelinmoqda. Bu holat, bir tomondan, tilshunoslik va adabiyotshunoslikning tutash nuqtasida muayyan munozarani yuzaga keltirsa, ikkinchi tomondan, ta'lim tizimi va amaliy lingvistik tahlilda istilohiy chalkashliklarni keltirib chiqarmoqda.

Ana shu terminologik xilma-xillik va sohadagi parokandalikka barham berish, tushunchalar o'rtasidagi chegaralarni aniqlashtirish hamda yagona ilmiy standartni qaror toptirish maqsadida "badiiy til vositalari", "tasviriy vositalar", "ifoda-tasviriy vositalar" hamda "tilning maxsus tasviriy vositalari" kabi turlicha atamalarning o'rniga "tilning badiiy tasvir vositalari" yagona terminologik birikmasini qo'llashni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Bizningcha, ushbu atama, birinchidan, tushunchaning mantiqiy va semantik mohiyatini to'liq aks ettiradi, ikkinchidan, "ifoda-tasviriy" kabi birikmalar tarkibidagi ortiqcha mantiqiy qaytariqlardan xoli bo'lib, ilmiy tildagi ixchamlik va aniqlik talablariga to'la javob beradi. Bizningcha, tilning badiiy tasvir vositalari shakliy va mazmun xususiyatiga ko'ra uch bo'limga ajratilib yangicha tasnif etilishi lozim.

Birinchi bo'limda shakl bilan bog'liq tilning badiiy tasvir vositalari o'rganilib, uning tarkibiga sindeton, polisindeton, asindeton, anafora, epifora, infora, ellipsis, inversiya, sinkopa, anakopa, pleonazm kabi vositalar kiritiladi.

Ikkinchi bo'lim ma'noning ko'chishi bilan aloqador tilning badiiy tasvir vositalariga ajratilib, unga metafora, metonimiya, sinekdoxa, funksiyadoshlik, ironiya, enantiosemiya, giperbola (mubolag'a), litota (kichraytirish), evfemizm, disfemizm, oksimaron, epitet, personifikatsiya (jonlantirish), o'xshatish kabilar kiradi.

Uchinchi bo'lim esa, ham shakl, ham mazmun bilan aloqador tilning badiiy tasvir vositalari nomi bilan atalib, unda antiteza va xiazm hodisalari uslubiy-semantik jihatdan yoritiladi.

XULOSA

Umuman olganda, tilshunoslik va adabiyotshunoslikning tutash nuqtasida paydo bo'ladigan hamda fanda keng qo'llaniladigan istilohlarni shakllantirishda mantiq, til qoidalari va ilmiy uslub talablariga qat'iy rioya qilish, atamalarni ularning mohiyati va vazifasiga mos ravishda nomlash alohida ahamiyat kasb etadi.

O'tkazilgan tadqiqot va ilmiy tahlillar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Terminologik tartibga solish: Ilmiy-metodik adabiyotlarda uchraydigan "ifoda-tasviriy vositalar", "badiiy tasvir va ifoda vositalari", "tilning maxsus tasviriy vositalari" kabi parokanda va tarkibida mantiqiy takror mavjud bo'lgan atamalar o'rniga tushunchaning semantik va poetik mohiyatini aniq aks ettiruvchi "tilning badiiy tasvir vositalari" yagona terminologik birikmasini fanga va ta'lim tizimiga kiritish maqsadga muvofiqdir.

Yangi tizimli tasnif: Badiiy tasvir vositalarini faqat an'anaviy tarzda ikkiga (troplar va figuralarga) emas, balki ularning shakliy va mazmuniy belgilarini e'tiborga olgan holda uch bosqichli yangi tizimga ajratish taklif etiladi:

Shakl bilan bog'liq badiiy tasvir vositalari (figuralar): anafora, epifora, ellipsis, inversiya, asindeton, polisindeton va b.;

Ma'no ko'chishi bilan bog'liq badiiy tasvir vositalari (troplar): metafora, metonimiya, sinekdoxa, epitet, ironiya, oksimoron va b.;

Ham shakl, ham mazmun o'zgarishiga tayanadigan vositalar: antiteza hamda xiazm hodisalari.

Badiiy tasvir vositalarining terminologik va nazariy masalalarini ushbu tarzda unifikatsiya qilish (bir xillashtirish) va tizimlashtirish nafaqat tilshunoslik hamda adabiyotshunoslik nazariyasini boyitadi, balki oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida stilistika va lingvopoetika fanlarini o'qitishda, shuningdek, badiiy matnlarni tahlil qilishda amaliy manba bo'lib xizmat qiladi.

References:

1. Abdurahmonov, G'. (1973). O'zbek adabiy tilining stilistik normalari. In O'zbek tili nutq madaniyatiga oid masalalar (p. 52). Toshkent.
2. Qosimova, M. (2007). Badiiy nutq individualligining lingvistik xususiyatlari (T. Murod asarlari asosida) [Filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati]. Toshkent.
3. Qo'ng'urov, R. (1977). O'zbek tilining tasviriy vositalari. Fan.
4. Qo'ng'urov, R., va boshq. (1992). Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. O'qituvchi.
5. Qur'onov, D. (2002). Adabiyotshunoslikka kirish. Hayot.
6. Shomaqsudov, A., va boshq. (1983). O'zbek tili stilistikasi. O'qituvchi.
7. Sulton, I. (1986). Adabiyot nazariyasi. O'qituvchi.
8. Xudoyberdiyev, E. (2003). Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent.
9. Yo'ldoshev, M. (2002). Cho'lpon so'zining sirlari. Ma'naviyat.

Makhmasobirova F.	The issue of cultural development in India during the Baburid period	406
Yulchibayev J.Sh.	Tatar educators in the system of public education of Turkestan	412
Ibragimova E.I.	Terminology and classification of artistic descriptive means in the Uzbek language	417
CONTENTS		422